



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**



**UMUMIY TILSHUNOSLIK
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	200 000 – San‘at va gumanitar fanlar
Ta‘lim sohasi:	100 000 – Ta‘lim
	230 000 – Tillar
	110 000 – Ta‘lim
Ta‘lim yo‘nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (sharq tillari bo‘yicha)
	60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (sharq tillari bilan)
	60230400 – Kompyuter lingvistikasi
	60110900 – Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili


Sharq xalqlari tillari va adabiyoti
instituti direktori:



(imzo)

X. V. Mirzaxmedova


Tarjimashunoslik, tilshunoslik va
xalqaro jurnalistika oliy maktabi boshlig'i:



(imzo)

S. T. Mustafayeva

ARM boshlig'i:



(imzo)

M. Yuldasheva

Fan/modul kodi UT1108	O'quv yili 2025/2026	Semestr 1	YeCTS - Kreditlar 8	
Fan/modul turi Maiburiy	Ta'lim tili O'zbek, rus		Haftadagi dars soatlari 8	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Umumiy tilshunoslik	96	144	240

2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni:</p> <p>Fanning maqsadi: tilshunoslik sohasining predmeti, vazifalarini yoritish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini ichki va tashqi integratsiya asosida tahlil qilish, tilning ijtimoiy tabiati, shakllanish jarayoni, taraqqiyoti, til va jamiyat, til va tafakkur munosabati, til birliklari, nutq birliklari, til birliklari o'rtasidagi munosabatlar, til sathlari, dunyo tillari tavsifi, lingvistika turlari: pragmalingvistika, psixolingvistika, tilshunoslik maktablari, lingvistik tahlil metodlari, lisoniy universalialar, metatil va til strukturasi haqida ma'lumot berishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - fanning vujudga kelishi va rivojlanishi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash; - talabalarda umumiy tilshunoslik bo'yicha asosiy bilim va ko'nikmalarni hosil qilish; tilning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy vazifalari, til sathlari, tilshunoslik fani bo'limlari, tilshunoslikda faol qo'llaniladigan terminlar mohiyatini anglash; - tilshunoslikning nazariy masalalariga ilmiy hamda integrativ yondashuvni shakllantirish; - tilshunoslik fanining tarixi, tilshunoslik maktablari va yo'nalishlari, tilshunoslik metodlari, lisoniy universalialar, lingvistik ta'minotlar va til strukturasi haqida bilim berish vazifalari nazarda tutiladi. <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi University of Pennsylvania (QS14) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p>https://summer.sas.upenn.edu/sites/default/files/2023-03/LING-0001-920-syllabus.pdf</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu. "Umumiy tilshunoslik" fanining o'rganish obyekti, maqsad va vazifalari</p> <p style="text-align: center;">Tilshunoslik fanining terminologik apparati. Tilnmg ijtimoiy, biologik,</p>
-----------	--

fiziologik tabiati. Til - kishilar o'rtasidagi aloqa quroli. Tilning kommunikatsiyadagi o'rni.

2-mavzu. Tillarning shakllanishi va rivojlanishi

Tilning paydo bo'lishi haqidagi farazlar. Tillarning o'zaro ta'siri va rivojlanish qonuniyatlari. Substrat va superstrat hodisasi. Til va nutq.

3-mavzu. Til taraqqiyotining jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqligi

Til va jamiyat. Til taraqqiyotining jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqligi. Kishilik tarixida urug' tili, qabila tili, elat, xalq va millat tili. Tilning ijtimoiy vazifalari: emotiv, akkumulyativ, estetik, metalisoniv va b. vazifalar. Tilning jamiyatdagi ko'inishlari. Me'yorlashtirilgan tillar. Adabiy til va shevalar. Jamiyatning tilga va tilning jamiyatga ta'siri. Tillarning chatishuvi masalasi. Kreol tillar. Pijin tillari. Millatlararo tillar. Xalqaro tillar. Sun'iy til. Og'zaki va yozma nutq. Yozuv va savodxonlik muammolari.

4-mavzu. Til tizimi va taraqqiyot qonuniyatlari

Til taraqqiyotining ichki va tashqi qonuniyatlari. Tilning strukturasi va sistemasi tushunchasi. Sistemaning besh jihuti. Til sistemalar sistemasi sifatida. Til strukturasi elementlari.

5-mavzu. Til va tafakkur aloqasi. Til va madaniyat munosabati

Til birliklari va mantiqiy tushunchalarning o'zaro munosabati. Tafakkur - tashqi moddiy olamning kishilar ongida aks etishi. Tildagi so'zlar, so'z birikmalari va jumlamaning tafakkur mahsuli ekanligi. Til strukturasi va tafakkur birliklari. Lingvokulturologiyaning obyekt, predmeti. Muqobilsiz leksika va lakuna. Mifologiyalashtirilgan til birliklari. Tilning paremiologik (maqol va matallar) fondi. O'xshatishlar, ramzlar, stereotiplar. Metaforalar va obrazlar. Tillarning stilistik qatlami. Nutqiy muomala. Nutq etiketi.

6-mavzu. Yozuv - kishilik madaniyati mahsuli sifatida

Yozuv va uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati. Yozuvning paydo bo'lishi. Yozuv piktografik, ideografik, fonografik bosqichlari. O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi foydalangan yozuvlar. Yozuv qurollari va materiallari.

7-mavzu. Til - belgilar tizimi

Tilning semiotik tabiati Til birliklarining tizim silatidagi munosabati. Til tizimini tashkil etgan asosiy sathlar. Tilning "intellektuallashuvi". Tilning internatsionallashuvi. Tilning demokratlashuvi.

8-mavzu. Tilshunoslik va uning bo'limlari. Fonetika va fonologiya

Fonetika. Fonologiya. Nutq tovushlari artikulyatsiyasi. Nutq tovushlari tasnifi. Undoshlar. Unlilar. Nutqning fonetik bo'laklari. Urg'u. Intonatsiya. Tovushlarning nutq jarayonida o'zgarishi. Assimilyatsiya. Singarmonizm.

Akkomadatsiya. Metateza. Proteza. Epenteza. Diereza. Gaplogiya.

9-mavzu. Tilning lug'at sathi. Leksikologiya va leksikografiya

Leksikologiyaning obyekti, predmeti va vazifalari. So'z va leksema. Nomema. Semema. Leksik ma'no (denotat) va tushuncha (signifikat). Leksemaning semantik tarkibi. Semema (leksik ma'no)ning semantik tarkibi. Leksik ma'no turlari. Leksik ma'noning kengayishi va torayishi. So'z leksik ma'nosining ko'chma ma'no yuzaga keltirishi. Evfemizm va disfemizm. So'zlarning shakliy va ma'no munosabatlari: paronim, omonim, antonim, sinonim. Giponimiya, graduonimiya, partonimiya. Tilning lug'at sathi. Dialektizmlar. Kasb-hunarga oid so'zlar. Jargon va argolar. Terminologiya. Leksikada eskirish va yangilanish jarayonlari. Neologizmlar. Etimologiya. Frazologiya. Parafrazalar. Frazologizmlar. Leksikografiya. Lug'at tuzish nazariyasi va amaliyoti. Lug'at turlari. Lug'atlar bilan ishlash.

10-mavzu. Grammatika. Morfologiya va sintaksis

Grammatik kategoriyalar. Grammatik shakllar. Morfologiyaning o'rganish obyekti. Morfema. Konversiya. Reduplikatsiya. Suppletivatsiya. So'z turkumlari. So'z va so'z turkumlarining morfologik tasnifi. So'z birikmasi. Sintagma. Gapda so'zlarning o'zaro sintaktik aloqaga kirituvchi vositalar. Gapda so'zlarning o'zaro sintaktik aloqaga kirishish usullari. Gapning asosiy logik-grammatik belgilari. Gaplarning tasnifi. Gapping aktual bo'linishi. Kirish konstruksiyalar. Kiritma konstruksiyalar.

11-mavzu. Dunyo tillari va tillar tasnifi. Geneologik tasnif

Dunyo tillari. Tillani tasniflash. Tillarning geneologik tasnifi. Til oilalari. O'lik tillar.

12-mavzu. Tillarning tipologik (morfologik) tasnifi

Tillarning tipologik tasnifi. Qo'shimchali (affiksli) tillar. Qo'shimchasiz tillar. Flektiv tillar. Agglyutinatív tillar. Amorf tillar. Polisintetik tillar. Maxsus tipologik nazariya. Til universalialari. Metatil (etalon til). Son kategoriyasi. Shaxs kategoriyasi. Kelishik kategoriyasi. So'z moddiy tarkibining o'zgarishi. Soddalashuv. Qayta tuzilish. Murakkablashuv.

13-mavzu. Lingvistika turlari

Dinamik lingvistika. Statik lingvistika. Atomistik lingvistika. Struktural lingvistika. Sinxron lingvistika. Diaxron lingvistika. Intralingvistika. Ekstralingvistika. Makrolingvistika. Paralingvistika. Pragmalingvistika. Psixolingvistika. Sostiolingvistika. Etnolingvistika. Matematik lingvistika. Neyrolingvistika. Kompyuter lingvistikasi. Kognitiv lingvistika

14-mavzu. Psixolingvistika

Psixolingvistikaning nazariy masalalari. Amerika psixolingvistik maktabi:

bixeviorizm, neobixeviorizm. Nutqiy faoliyat nazariyasi asoslari. Nutq yaratilishi va idrok qilinishi jarayonlarining psixolingvistik tahlili. Til o'zlashtirishning psixolingvistik qonuniyatlari. Psixolingvistikada eksperimental tadqiqotlar. Amaliy psixolingvistika. Ijtimoiy psixolingvistika. Etnopsixolingvistika.

15-mavzu. Pragmalingvistika

Pragmalingvistikaning predmeti. Pragmalingvistik tahlil. Nutqiy akt nazariyasi. Kommunikativ maqsadning ifodalanishi. Pragmatik mazmuni shakllantiruvchi hodisalar. Samarali muloqotning tamoyil va qoidalari. Sotsiopragmatik tahlil asoslari. Deyksis va nutqiy muloqot matni, matnda mazmunning ifodalanishi. Nutqiy muloqot tizimi birliklari. Diskursning tuzilishi va uning tahlili.

16-mavzu. Tilshunoslik tarixi. Qadimgi asrlar tilshunosligi

Qadimgi asrlar tilshunosligi. Qadimgi Hind tilshunosligi. Vedalar. Sanskrit tili. Hind tilshunoslarining fanga qo'shgan hissasi. Guru va uning tilshunoslikka oid qarashlari. Ashtadxyan. Qadimgi Yunon tilshunosligi. Yunon tilshunosligining falsafiy va grammatik davri. Analogistlar va anomalistlar. Demokritning tilshunoslikka oid qarashlari. Geraklit va uning tilshunoslikka oid fikrlari. Epikur va uning tarafdorlari. Aristarx boshchiligidagi analogistlar oqimi. Yunon tilshunos olimlari. Qadimgi Rim tilshunosligi. Qadimgi Rim tilshunosligining vakillari: Yuliy Sezar, Mark Terensiy Varron, Mark Fabiy, Kvintilian, Eliya Donata, Veniy Flakk, Prissian. Qadimgi Xitoy tilshunosligi. Syuy Shen "Elementlar va murakkab belgilar haqida" asari. Xitoy grammatikachilarining asoschilari.

17-mavzu. O'rta asrlar tilshunosligi

Arab tilshunosligi. Arab tilshunosligining asoschilaridan biri Basra grammatika maktabining vakili Xalil al - Farohidiy. "Kitobul ayn" lug'ati. "Kitobul avomil" kitobi. Amir bin Usmon Sibavayxiy va "Al-kitob". O'rta Osiyoda tilshunoslik. Forobiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, az-Zamaxshariy, Alisheriy Navoiy, Mirzo Mehdixon va ularning tilshunoslikka qo'shgan hissasi.

18-mavzu. Yevropada uyg'onish davri tilshunosligi

"Lotin tili asoslari haqida" kitobi. "Lotin tili xazinasi" kitobi. Semit tillarini o'rganish. Leksikografik tadqiqotlar. Por-Royal grammatikasi. Mantiqiy grammatika. Rus tilshunosligi. Rossiya grammatikasi. Uch uslub (stil) haqidagi nazariya. F.Buslayev, A.Potebnya.

19-mavzu. Komparativistika. Yosh grammatikachilar maktabi

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik. F.Bopp-V.Gumboldt bosqichi. Rasmus Rask. Yakob Grimm. Aleksandr Xristoforovich Vostokov. A.Shleyxer-G.Shteyntal bosqichi. Naturalizm. Psixologizm. Yosh grammatikachilar maktabi. Leyspig

maktabi.

20-mavzu. Rossiya tilshunoslik maktablari. Sotsiologizm. Strukturalizm

Moskva maktabi. F.Fortunatov. Qozon maktabi. Ivan Boduen de Kurtene. V.A.Bogoroditskiy. Ferdinand de Sossyur. Sotsiologizm. Sotsiologik tilshunoslik. Strukturalizm. Praga strukturalizmi (Funksional lingvistika). Amerika strukturalizmi (Deskriptiv lingvistika). Kopengagen strukturalizmi (Glossematika).

21-mavzu. Sho'ro davri tilshunosligi

Dialektik falsafa. Til materiyasi. Til funksiyasi. Sho'ro davri tilshunosligi. I.Meshaninov. L.Sherba. V.Vinogradov. Y.Polivanov. A.Smirmitskiy. V.Solnsev.

22-mavzu. O'zbek tilshunosligi

A.G'ulomov. S.Usmonov. Sh.Shoabdurahmonov. M.Asqarova. G'.Abdurahmonov. Sh.Rahmatullayev. M.Mirtojiyev. A.Hojiyev. R.Qo'ng'urov. E.Begmatov. B.O'rinboyev. H.Ne'matov. A.Nurmonov. R.Rasulov. I.Mirzayev. A.Mamatov. N.Mahmudov. H.Dadabayev. Sh.Usmanova. R.Sayfullayeva. B.Menglijev

23-mavzu. Tilshunoslikning tadqiq metodlari. Diaxron tadqiq metodlari

Metod haqida. Metodika. Metodologiya. Sinxron va diaxron metodlar. Tasviriy metod. Qiyosiy-tarixiy metod. Chog'ishtirish metodi. Tipologik metod.

24-mavzu. Sinxron tadqiq metodlari

Distributiv tahlil metodi. Statistik tahlil metodi. Bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish metodi. Transformatsion tahlil metodi. Komponent tahlil metodi. Valentlik tahlil metodi. Eksperimental-fonetik tahlil metodi. Avtomatik tahlil metodi.

II.2. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

"Umumiy tilshunoslik" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Til – murakkab mohiyat sifatida
2. Tillarning shakllanishi va taraqqiyoti
3. Til va nutq. Sotsiolingvistika
4. Til tizimi
5. Til va tafakkur munosabati. Lingvokulturologiya
6. Til va yozuv munosabati
7. Til – belgilar tizimi. Semiotika
8. Tilshunoslik bo'limlari. Fonetika va fonologiya
9. Tilning lug'at sathi. Leksikologiya va leksikografiya
10. Grammatika. Morfologiya va sintaksis
11. Dunyo tillari va tillar tasnifi. Geneologik tasnif

12. Tillarning morfologik tasnifi
13. Lingvistika turlari
14. Psixolingvistika
15. Pragmalingvistika
16. Tilshunoslik tarixi. Qadimgi asrlar tilshunosligi
17. O'rta asrlar tilshunosligi
18. Yevropada uyg'onish davri tilshunosligi
19. Komparativistika. Yosh grammatikachilar maktabi
20. Rossiya tilshunoslik maktablari. Sotsiologizm. Strukturalizm
21. Sho'ro davri tilshunosligi
22. O'zbek tilshunosligi
23. Tilshunoslikning tadqiq metodlari. Diaxron tadqiq metodlari
24. Sinxron tadqiq metodlari

III. Mustaqil ta'lim*

III.1. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMISga ilova qilish, shuningdek, qisman joriy, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi.

“Umumiy tilshunoslik” fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Tilning ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lishi: tavsifi va funksiyalari
2. Tilning yuzaga kelishi, tadrijiy taraqqiyoti va takomili
3. Tilning paydo bo'lishi haqidagi farazlar
4. Til va nutq munosabatlari
5. Til – sistema sifatida
6. Til va nutq birliklari
7. Tiling jamiyatga va jamiyatning tilga ta'siri: Sotsiolingvistika
8. Til va tafakkur munosabati
9. Til va madaniyat munosabati
10. Yozuv – kishilik madaniyati mahsuli
11. Yozuv turlari. Yozuvning kamchiliklari
12. Semiotika. Til – ramzlar tizimi
13. Tilshunoslik va uning bo'limlari
14. Til sathlari
15. Tillarning geneologik va morfologik tasnifi
16. Tilshunoslik tarixi
17. Tilshunoslik maktablari
18. Psixolingvistika yo'nalishining asosiy masalalari
19. Pragmalingvistika va uning o'rganish obyekti
20. Tilshunoslikning tadqiqot metodlari

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllarda topshiradi:

- darsliklar va o'quv qo'llanmalarining mavzularini o'rganib chiqish;

	<ul style="list-style-type: none"> • maxsus ilmiy adabiyot asosida mavzular ustida ishlash; • o'quv-ilmiy-tadqiqot faoliyat bilan bog'liq mavzularni chuqur o'rganish; • ta'lim olishning faol va muammoli usullari qo'llangan o'quv mashqlarni bajarish; • taqdim etilayotgan mavzu bo'yicha referat, esse, maqola va testlar tayyorlash; • mavzu bo'yicha slayd-prezentatsiyani tayyorlash; • mavzular bo'yicha adabiyotlar sharhi. <p><i>* Izoh: Mustaqil ta'lim mavzulari fan doirasida o'zgarishi mumkin.</i></p>
3.	<p style="text-align: center;">IV. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p><i>"Umumiy tilshunoslik" fanini o'zlashtirish natijasida talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - tillarning shakllanishi va rivojlanishi, til hodisalari; - tilning rivojlanish qonuniyatlari, tilning vazifalari; - tilshunoslik bo'limlari, til sathlari; - tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari, tilshunoslik tarixi, tilshunoslikning tadqiqot metodlari; - til universaliyasi, metatil; - ilmiy terminlar tizimi, lingvistikaga tegishli tasavvurga ega bo'lishi; - tilshunoslikning nazariy masalalarini; - tillarning geneologik va morfologik tasnifini; - lingvistika turlarini, pragmalingvistika va psixolingvistika yo'nalishlarini; - tilshunoslik maktablari, sinxron va diaxron tadqiqot metodlarini ilmiy atamalar tizimi, lingvistikaga tegishli tushunchalarni bilishi va ulardan foydalana olishi; <p>bular bilan bir qatorda bakalavr:</p> <ul style="list-style-type: none"> - til hodisalariga ilmiy yondashish; - til hodisalarini turli aspektda ko'ra olish; - tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasini tahlil qila olish ko'nikmasiga ega bo'lishi; - tillarni geneologik va morfologik jihatdan tasniflay olish; - tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari tadqiq qilish; - tilshunoslik maktablarini ajrata olish; - tilshunoslik tadqiqot metodlarini amaliy jihatdan nazariy bilimga bog'lay olish malakalariga ega bo'lishi kerak.
4.	<p style="text-align: center;">V. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</p> <ul style="list-style-type: none"> • videomahsulotlardan foydalanish; • grammatik-tarjima metodi; • audio-lingval metod; • audiovizual metod; • namoyish qilish (demonstratsiya) metodi; • interfaol keys-stadilar; • rolli o'yinlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • individual loyihalar;

	<ul style="list-style-type: none"> • jamoaviy loyihalar; • organayzer (Klaster, Baliq skeleti, Ajurli arra, FSMU, Bumerang, Insert, BBXB)lar; • infografikalar yaratish va boshqalar.
5.	<p style="text-align: center;">VI. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, til hodisalari, tilshunoslik maktablari, tilshunos olimlar haqida mustaqil mushohada yuritish, xususan, har bir seminar uchun:</p> <ul style="list-style-type: none"> • keys stadi metodi doirasida darslarda faol ishtirok etish; • shaxsiy mulohazalarni yozma shaklda bayon qilish; • berilgan mavzu yuzasidan taqdimot tayyorlash; • o‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida test tuzish; • amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha konspekt daftarlari yuritish (<i>amaliy mashg‘ulot mavzulari konspekti, amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha adabiyotlar sharhi</i>) shuningdek, joriy, oraliq nazora, mustaqil ta‘lim shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ish yoki testni topshirish.
7.	<p style="text-align: center;">VII. ASOSIY VA QO‘SHIMCHA O‘QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</p> <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. //Darslik// –Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021. –318 b. 2. Turobov A. Umumiy tilshunoslik. //O‘quv qo‘llanma// –Samarqand, 2020. –241 b. 3. O‘rinboyev B., Musayev A. Umumiy tilshunoslik. //O‘quv qo‘llanma// –Toshkent: Oltin kitob, 2022. –199 b. 4. Yo‘ldoshev I., Muhamedova S., Xolmanova Z., Majidova R., Sultonova Sh. Mutaxassislikka kirish (Tilshunoslikka kirish). //Darslik// –Toshkent, 2020 –317 b. 5. Даниленко В.П. Общее языкознание и история языкознания. //Курс лекций//–Москва: ФЛИНТА, 2025. 6. Даниленко В.П. Введение в языкознание. //Курс лекций. Изд.4//–Москва: ФЛИНТА, 2024. 7. Никулина М.А. Введение в лингвистику. –Москва: ФЛИНТА, 2021. <p style="text-align: center;">Qo‘shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. –Toshkent: O‘zbekiston, 2024. 2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. –Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 2023.

4. Turobov A. Tilshunoslik nazariyasi. //O'quv qo'llanma// –Samarqand, 2022. –254 b.

5. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. //Darslik// –Toshkent: Shafolat Nur Fayz, 2020. –256 b.

6. Georgios P. Georgiou. An Introduction to Issues in General Linguistics. –Cambridge, Cambridge Scholars Publishing, 2020. –103

Scopusdan maqolalar

1. George van Driem. Linguistic history and historical linguistics. July 2018, Linguistics of the Tibeto-Burman Area 41(1):106-127. DOI:10.1075/lbta.18005.dri

2. Abdukhalilova Khurshidakhon Ikhomjon kizi. Field theory in world linguistics. International journal of artificial intelligence. Vol. 5 No. 03 (2025). academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/3649?utm_source

Axborot manbalar

1. <http://www.ziyo.net>

2. <https://www.jstor.org/>

3. <https://tadqiqot.uz>

7. Fanning o'quv dasturi "Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika" oliy maktabi tomonidan ishlab chiqilgan va 2025-yil "18" 06 dagi 24-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025-yil "28" 06 dagi 11 - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Fan/modul uchun ma'sullar:

8. Ergasheva S.M. – TDSHU Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi o'qituvchisi

9. Taqrizchilar:

1. Omonov Q.Sh. – TDSHU Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi professori, filologiya fanlari doktori

2. Dadabayev H.A. – TDO'TA Nazariy va amaliy tilshunoslik kafedrasida professori, filologiya fanlari doktori

Faint, illegible text, possibly bleed-through from the reverse side of the page. The text is arranged in several paragraphs and appears to be a formal document or report.